



BANK OPERATSIYALARINI AMALGA OSHIRISH UCHUN

74 -raqamli

LITSENZIYA

20 17 yil "21" oktabr

Toshkent shahri

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2017 yil "21" oktabr dagi
28/33 sonli qaroriga muvofiq

«Ipoteka-bank» aksiyadorlik tijorat ipoteka banki

100000, Toshkent shahri, Shahrizabz ko'chasi, 30-uy

(pochta manzili va boshqa rekvizitlar)

quyidagi bank operatsiyalarini so'mlarda hamda xorijiy valyutalarda amalga oshirish huquqiga ega:

1. Jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan, vakil banklarning hisobvaraqlarini ochish va yuritish, hisobvaraqlar bo'yicha hisob-kitob qilish.
2. Omonatlarni jalb etish.
3. Kreditlarning qaytarilishi, foizlilik va muddatlilik shart bilan o'z mablag'lari va jalb etilgan mablag'lar hisobidan o'z nomidan kreditlar berish.
4. Mablag' egasi yoki mablag'ni tasarruf etuvchi bilan tuzilgan shartnomaga binoan pul mablag'larini boshqarish.
5. Chet el valyutasini naqd va naqd bo'lmagan pul shakllarida ichki valyuta bozorida hamda xalqaro pul bozorlarida sotib olish va sotish.
6. Pul mablag'larini, to'lov va hisob-kitob hujjatlarini inkasso qilish.
7. Uchinchi shaxslar nomidan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish.
8. Uchinchi shaxslardan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish.
9. Qimmatli qog'ozlar chiqarish, xarid qilish, sotish, hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, qimmatli qog'ozlar bilan boshqa operatsiyalarni bajarish.
10. Bank faoliyati yuzasidan maslahat va axborot xizmatini ko'rsatish.
11. Jismoniy va yuridik shaxslarga hujjatlar va boshqa boyliklarni saqlash uchun maxsus binolar yoki ular ichidagi po'lat sandiqlarni ijaraga berish.
12. Xalqaro bank amaliyotiga muvofiq xorijiy valyutada kreditlar, depozitlar, jamg'armalar va boshqa shakllarda mablag'lar jalb etish va joylashtirish hamda o'z mablag'lari doirasida mijozlari foydasiga xorijiy valyutada kafolatlar berish.
13. Moliyaviy lizing.
14. Uchinchi shaxslar nomidan majburiyatlarning bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish
15. Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirish

Ushbu litsenziya belgilanmagan muddat mobaynida amal qiladi.

Yuqorida keltirilgan operatsiyalar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan tartib va iqtisodiy me'yorlar asosida amalga oshiriladi.

Bank zimmasiga o'z mijozlari operatsiyalari ustidan valyuta nazoratini amalga oshiruvchi agent vazifasi yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ushbu litsenziya shartlariga o'zgarish va qo'shimchalar kiritishi hamda O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi va "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunlarida ko'zda tutilgan hollarda uni bekor qilishi mumkin.

Bank 2005 yil "30" aprel da 74 -raqam ostida Banklarni ro'yxatga olish Davlat kitobiga kiritildi(gan).

O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki Raisi o'rinbosari

Sh.X. Atabaev

(ismi-sharifi)

(MO')



(imzo)